

TIL VA MADANIYAT

*Andijon davlat chet tillari instituti
Ingliz tili va adabiyoti
fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası
o‘qituvchisi Uliqova Mavluda,
409-guruh talabasi Ulug‘bekova Gulchiroy*

Til haqida so‘z yuritish uchun tilshunos olim Sossyurning belgi nazariyasi ushbu sohada samarali va muhim rol o‘ynagan asosiy nazariyalardan biri ekanligini ta’kidlash zarur. Sossyurning belgi nazariyasi lingvistik yoki semiotik yondashuvning ko‘tarilishida mulohazali va aks ettiruvchi manipulyatsiyaga ega. Shu nuqtayi nazardan Sossyur (1974) til belgilar tizimidir, deb hisoblaydi. Uning uchun belgi ishora qiluvchi (ovozli tasvir yoki yozma shakl) va belgili (konsepsiya; tushuncha) dan iborat bo‘lib, ular ikkalasi ham bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Chase (1969)ning ta’kidlashicha, tildan foydalanish maqsadi boshqalar bilan muloqot qilish, fikrlash va hayotga o‘z nuqtayi nazarini va dunyoqarashini shakllantirishdir.

Darhaqiqat, til odamlarning fikrlarini anglatadi. Sossyur (1956, 1972, 1974, 1983) tilni farqlar tizimi sifatida belgilaydi. Shu ma’noda u turli xil tillarda tovushli tasvir yoki yozma shaklning ma’nosi farqiga ishonadi. “Agar so‘zlar ilgari mavjud bo‘lgan tushunchalarni anglatasa, ularning barchasi bir tildan ikkinchi tilga ma’no jihatidan aniq ekvivalentlarga ega bo‘lar edi; ammo bu to‘g‘ri emas”¹ (Sossyur, 1974, 116-bet).

“Til va madaniyat” masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga madaniyatshunos, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Biroq, masalaning tilshunoslikka oid tomoni ikki jihatlidir, chunki til va madaniyat o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Shunga ko‘ra, bu ikki munosabat to‘g‘risida savol tug‘iladi:

- 1) Turli madaniy jarayonlar tilga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
- 2) Madaniyatga til qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mashhur rus tilshunosi G.O.Vinokurning “Tilni o‘rganayotgan har qanday tilshunos albatta, tanlagan tili uning mahsuloti bo‘lgan o‘sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi” degan fikri tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda. I.Gerder “Inson faoliyatidagi to‘rt asosiy hodisa til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog‘langan. Til o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog‘liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi” deb e’tirof etadi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabati Vilgelm fon Gumboldtning “Odam tillarining tuzilishining farqlanishi va uning odam zotini ma’naviy rivojlanishiga ta’siri” nomli asarida batafsil yoritilgan². Olimning turli tillar o‘z mohiyatlari, bilish va sezishga ta’sir ko‘rsatish bo‘yicha turli dunyoqarashni tashkil etishi hamda til xususiyatlarining millat mohiyatiga ta’sir ko‘rsatishi haqidagi fikrlari keng tarqala boshladi. Olimning ta’limotida quyidagi g‘oyalalar o‘z ifodasini topadi:

- 1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda mujassamlashadi.
- 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda dunyoni o‘ziga xos ko‘rish vositasi bilan ifodalanadi; tilga har bir xalq uchun o‘ziga xos ko‘rish vositasi bilan ifodalanadi; tilga har bir xalq uchun o‘ziga xos bo‘lgan ichki shakl xosdir;
- 3) tilning ichki shakli – “xalq ruhi” va uning madaniyatining ifodasidir.
- 4) til va inson uni o‘rab olgan dunyo orasidagi xalqa hisoblanadi. Gumboldt g‘oyalari XIX-XX asrlarda neogumboldtianlik (tilshunoslikda Gumboldt bilan bog‘liq yangi davr) doirasida rivojlantirildi. Xususan, XIX asrda Rossiyada A.A.Potebnya uning “tilni faoliyat sifatida” gi g‘oyasini rivojlantirdi.

Tilshunoslardan amerikalik mashhur tilshunos va madaniyatshunos E.Sepir (1884-1939) “til va madaniyat” masalalari bilan shug‘ullanmagan, deyish mumkin. E.Sepirning “Tilshunoslik va

madaniyatshunoslik bo‘yicha tanlangan asarlar”ida “ til va madaniyat “ masalalariga doir qator savollar quyidagicha yoritilgan.

E.Sepirning fikriga ko‘ra, madaniyat – turmush tarzimizni tavsiflovchi, ijtimoiy meros qilib olingan amaliy malakalar va g‘oyalar majmui. Sepirning boshqa talqiniga ko‘ra, madaniyat – jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan qadriyatlarining tanlab olinishi. Madaniyat xatti-harakatlar bilan qiyoslanadi.

Til oldin paydo bo‘lganmi yoki madaniyat degan savol tug‘ilishi tabiiy. Sepir til madaniyatdan avval paydo bo‘lgan, chunki til madaniyatga nisbatan ma’no ifodalovchi vosita sanaladi, deb hisoblagan. Til milliy madaniyat mavjudligi va uning ifodalanishining asosiy shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq Sepirning fikriga ko‘ra, til ijtimoiy va madaniy rivojlanish mahsulidir. Til madaniyatning ijtimoiylashgan qismidir.

Til va madaniyatning mushtarkligini birinchidan nutq ham, madaniyat ham kamdan kam holatlarda o‘z-o‘zicha yetarli bo‘ladi. Bu ikki hodisaning farqini E.Sepir shunday izohlagan; Jamiyatning nima qilishi va nimani o‘ylashiga qarab madaniyatni, qanday o‘ylashiga qarab esa tilni aniqlash mumkin.

Til va madaniyat qanday o‘zaro ta’sir qiladi? Til madaniyatga nisbatan madaniyatni to‘plash va uni meros qilish kumulyativ xususiyatga ega bo‘ladi. Sepirning fikricha, madaniyat saqlanib qolinishining asosiy shakllaridan biri maqollar, diniy kalimalar, xalq rivoyat – nasab shajarasi hisoblanadi. Tildagi tafovutlar madaniyatdagi farqli tafovutlarni ko‘rsatadi.

Til va madaniyat:

1) kommunikativ jarayonlarda;

2) ontogenez va filogenezda o‘zaro aloqada bo‘ladi. “Til va madaniyat” masalasi favqulodda murakkab va ko‘p qirrali bo‘lgani uchun unga turlicha yondashiladi. Xususan, E.Sepir va B.Uorf maktabi ilgari surgan qarashlarda insonlar olamni o‘z tillari vositasida turlicha ko‘rishi e’tirof etiladi. Modomiki, har bir til borliqini o‘ziga xos usullar bilan aks ettirar ekan, unda tillar bir-biridan o‘zining “olamning lisoniy manzarasi”ga ko‘ra farqlanadi.

E.Sepir va B.Uorfning gipotezasida quyidagi asosiy masalalar ajratiladi:

1. Til unda so‘zlashuvchi xalqning tafakkur usuli bilan bog‘liq hisoblanadi.

2. Olamni bilish usuli subyektning qanday tillarda fikrlashiga bog‘liq hisoblanadi.

Xullas, til madaniyatning tarkibiy qismi va uning vositasidir. U ruhimizning borlig‘i, madaniyatimizning ko‘rinishidir; u milliy mentallikning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Til inson oldida tafakkur sohasini ochgan mexanizmdir. Til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va ularning nisbati muammosi necha asrlardan beri bir qator taniqli olimlarning diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Ye.Sepirning fikriga binoan, “Madaniyatga ma’lum jamiyat nima bilan mashg‘ul va nima haqida o‘ylamoqda, deb ta’rif berilishi til ularni qay tarzda o‘ylayotganliklaridir”. N.I.Tolstoyning yozishicha, “Madaniyat va tilning munosabatiga, biror butun buyum va uning bir qismi munosabati sifatida qaralishi mumkin. N.D.Arutyunovning “Til va inson dunyosi” tadqiqoti turli davr va turli millatlar matnlarida mavjud bo‘lgan universal madaniyat terminlarini o‘rganishga qaratilgan. V.N.Teliya va uning maktabidagi tadqiqotlar predmeti frazeologizmlar, maqsadi esa milliy-madaniy konnotatsiyalari va “mentalitetning xarakterli chiziqlari”ni tavsiflashdan iborat. Lingvokulturologiya va lingvokulturologik terminlar lingvokulturologik terminlar singari mualliflar tomonidan ko‘pincha aniq asoslab berilmaydi. Natijada lingvokulturologik kategoriya erkinlikka ega bo‘lib, ba’zida biror termin ostida, hatto til siyosatini ham ifoda etishi mumkin bo‘ladi. Oxirgi o‘n yil ichida bu yo‘nalishlar (asosan, lingvokulturologiya va lingvokognitologiya) o‘zbek tilshunosligiga ham kirib kela boshladi. Lingvokulturologiya (lingvomadaniyatshunoslik) – lingvistik tadqiqotlar orasida bosh, yetakchi yo‘nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Арутюнова Н.Д. – М.: Языки русской литературы, 2000. – 624 с.
2. Соссюр, 1974, 116-бет.
3. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию. – М.: “Прогресс”, 1993.
4. Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку. –М.,1991.